kengash.gov.uz VII-3-015-7-102-K/24

XALQ DEPUTATLARI PAXTACHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-015-7-102-K/24 Paxtachi tumani

Paxtachi tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq hamda Samarqand viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Paxtachi tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **122 mlrd. 869 mln. 422 ming so‘m** va xarajatlari esa **135 mlrd. 120 mln. 846 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **12 mlrd. 251 mln 424 ming so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek, tuman mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **1 mlrd. 192 mln. so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin hamda tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlar va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilova**ga muvofiq, hamda tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 mlrd. 761 mln. 313 ming so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi

mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar **3-ilova**ga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar **4-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining Moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Boyqabilov), tuman Soliq inspeksiyasi (A.G‘iyasov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Kenjayev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



XAMDAMOV
MUZAFFAR
YAZDONKULOVICH

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-015-7-102-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-015-7-102-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Paxtachi tumani mahalliy budjeti daromadlarining
2025-yil uchun asosiy prognoz koʻrsatkichlari

ming soʻmda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**122 869 422**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	7 810 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	40 004 300
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	1 754 000
4	Benzin, dizel yoqilgʻisi va gazni oxirgi isteʼmolchiga realizatsiya qilishda toʻlanadigan aksiz soligʻi	18 588 000
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 295 000
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi	9 590 522
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi	14 441 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi	14 617 000
9	Qurilish materiallari boʻyicha yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq	7 000 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 412 600
11	Davlat mulki boʻyicha ijara toʻlovlari	357 000

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-015-7-102-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-015-7-102-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Paxtachi tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablagʻlarning cheklangan miqdorlari

ming soʻm

№	Hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**135 120 846**
1	Maktabgacha va Maktab taʼlimi boʻlimi	37 587 174
	shundan:	
	"Mening maktabim"	2 828 789
2	Madaniyat boʻlimi	11 220 419
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boʻlimi	6 237 565
4	Sport boʻlimi	7 284 301
5	Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi	1 632 387
6	Qishloq xoʻjaligi boʻlimi	4 433 751
7	*Irrigatsiya boʻlimi*	1 800 000
8	Iqtisodiyot va moliya boʻlimlarini saqlash xarajatlari	2 144 856
9	Hokimiyat	43 304 824
	shundan:	
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini oʻtab boʻlgan fuqarolarga “Dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	55 125
	Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi	28 106 200

	"Mahalla budjeti" jamgʻarmasi mablagʻlari	1 544 000
	Zaxira jamgʻarmasi	1 761 313
10	Hokimiyat (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	824 971
	shundan:	
	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	169 241
	Axborot-kutubxona markazlari	655 730
11	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	18 650 598

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-015-7-102-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-015-7-102-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar boʻyicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Mahalla fuqarolar yigʻini nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer soligʻi stavkasi 2025-yil uchun (soʻmda)
1	Amir Temur MFY	1,62	30 976 000,0
2	Amirobod MFY	1,36	30 976 000,0
3	Bogʻoloni MFY	1,36	30 976 000,0
4	Bodoy MFY	1,62	30 976 000,0
5	Boltali MFY	1,36	30 976 000,0
6	Burqut MFY	1,36	30 976 000,0
7	Bo'ston MFY	1,62	30 976 000,0
8	Guliston MFY	1,36	30 976 000,0
9	Gulobod MFY	1,62	30 976 000,0
10	Gulshan MFY	1,36	30 976 000,0
11	Goʻroʻgli MFY	1,36	30 976 000,0
12	Dabusqalʼa MFY	1,36	30 976 000,0
13	Do'ng MFY	1,36	30 976 000,0
14	Yobu MFY	1,36	30 976 000,0
15	Jahonobod MFY	1,62	30 976 000,0
16	Jona MFY	1,36	30 976 000,0
17	Zarafshon MFY	1,36	30 976 000,0
18	Istiqbol MFY	1,36	30 976 000,0
19	Istiqlol MFY	1,62	30 976 000,0
20	Qaynarbuloq MFY	1,36	30 976 000,0
21	Qarnabota MFY	1,09	30 976 000,0
22	Keshtali MFY	1,36	30 976 000,0
23	Qirguli MFY	1,36	30 976 000,0
24	Qoratepa MFY	1,36	30 976 000,0
25	Quvondiq MFY	1,36	30 976 000,0
26	Ko'rpa MFY	1,36	30 976 000,0

27	Qo'shhovuz MFY	1,36	30 976 000,0
28	Mirzo Nodim MFY	1,36	30 976 000,0
29	Mirzo Olim MFY	1,36	30 976 000,0
30	Mirzo Salimiy MFY	1,36	30 976 000,0
31	Mirzo Ulugʻbek MFY	1,62	30 976 000,0
32	Mirkan MFY	1,36	30 976 000,0
33	Mojar MFY	1,36	30 976 000,0
34	Nayman MFY	1,36	30 976 000,0
35	Nahripay MFY	1,36	30 976 000,0
36	Nurafshan MFY	1,36	30 976 000,0
37	Obodon MFY	1,36	30 976 000,0
38	Oqtepa MFY	1,36	30 976 000,0
39	Sardoba MFY	1,36	30 976 000,0
40	Saroy MFY	1,36	30 976 000,0
41	Suluvqo'rgʻon MFY	1,36	30 976 000,0
42	Tadbirkor MFY	1,36	30 976 000,0
43	Taraqqiyot MFY	1,36	30 976 000,0
44	Tinchlik MFY	1,36	30 976 000,0
45	Toma MFY	1,36	30 976 000,0
46	Toshko'prik MFY	1,62	30 976 000,0
47	To'gʻolon MFY	1,36	30 976 000,0
48	Ukrash MFY	1,36	30 976 000,0
49	Urganji MFY	1,36	30 976 000,0
50	Urgʻuch MFY	1,62	30 976 000,0
51	Fay MFY	1,22	30 976 000,0
52	Farovon Yo'ldoshobod MFY	1,36	30 976 000,0
53	Hayit Elbegi MFY	1,36	30 976 000,0
54	Xudoyberdi MFY	1,22	30 976 000,0
55	Hunarmand MFY	1,22	30 976 000,0
56	Chashma MFY	1,09	30 976 000,0
57	Chorgo'sha MFY	1,36	30 976 000,0
58	Shamsnazar MFY	1,62	30 976 000,0
59	Yangiobod MFY	1,62	30 976 000,0

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-015-7-102-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-015-7-102-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslar boʻyicha (dehqon xoʻjaligini yuritish uchun berilgan qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2025-yil uchun (so'mda)
1	Amir Temur MFY	1,51	264 100,0
2	Amirobod MFY	1,24	264 100,0
3	Bog'oloni MFY	1,24	264 100,0
4	Bodoy MFY	1,51	264 100,0
5	Boltali MFY	1,24	264 100,0
6	Burqut MFY	1,1	264 100,0
7	Bo'ston MFY	1,37	264 100,0
8	Guliston MFY	1,37	264 100,0
9	Gulobod MFY	1,37	264 100,0
10	Gulshan MFY	1,37	264 100,0
11	Go'ro'gli MFY	1,1	264 100,0
12	Dabusqal'a MFY	1,24	264 100,0
13	Do'ng MFY	1,24	264 100,0
14	Yobu MFY	1,1	264 100,0
15	Jahonobod MFY	1,37	264 100,0
16	Jona MFY	1,24	264 100,0
17	Zarafshon MFY	1,24	264 100,0
18	Istiqbol MFY	1,37	264 100,0
19	Istiqlol MFY	1,51	264 100,0
20	Qaynarbuloq MFY	1,24	264 100,0
21	Qarnabota MFY	0,96	264 100,0
22	Keshtali MFY	1,24	264 100,0
23	Qirguli MFY	1,24	264 100,0
24	Qoratepa MFY	1,37	264 100,0
25	Quvondiq MFY	1,1	264 100,0
26	Ko'rpa MFY	1,1	264 100,0

27	Qo'shhovuz MFY	1,1	264 100,0
28	Mirzo Nodim MFY	1,1	264 100,0
29	Mirzo Olim MFY	1,1	264 100,0
30	Mirzo Salimiy MFY	1,24	264 100,0
31	Mirzo Ulugʻbek MFY	1,51	264 100,0
32	Mirkan MFY	1,37	264 100,0
33	Mojar MFY	1,24	264 100,0
34	Nayman MFY	1,24	264 100,0
35	Nahripay MFY	1,24	264 100,0
36	Nurafshan MFY	1,24	264 100,0
37	Obodon MFY	1,24	264 100,0
38	Oqtepa MFY	1,24	264 100,0
39	Sardoba MFY	1,1	264 100,0
40	Saroy MFY	1,24	264 100,0
41	Suluvqo'rgʻon MFY	1,37	264 100,0
42	Tadbirkor MFY	1,37	264 100,0
43	Taraqqiyot MFY	1,37	264 100,0
44	Tinchlik MFY	1,1	264 100,0
45	Toma MFY	1,1	264 100,0
46	Toshko'prik MFY	1,51	264 100,0
47	To'gʻolon MFY	1,1	264 100,0
48	Ukrash MFY	1,24	264 100,0
49	Urganji MFY	1,24	264 100,0
50	Urgʻuch MFY	1,51	264 100,0
51	Fay MFY	1,1	264 100,0
52	Farovon Yo'ldoshobod MFY	1,24	264 100,0
53	Hayit Elbegi MFY	1,24	264 100,0
54	Xudoyberdi MFY	1,1	264 100,0
55	Hunarmand MFY	1,1	264 100,0
56	Chashma MFY	0,96	264 100,0
57	Chorgo'sha MFY	1,1	264 100,0
58	Shamsnazar MFY	1,51	264 100,0
59	Yangiobod MFY	1,51	264 100,0